3-son, 2025

INNOVATSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Ilmiy jurnal

ISSN: 2181-4465

INNOVATIVE PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

Scientific journal

INNOVATSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Ilmiy jurnal

INNOVATIVE PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

Scientific journal







ORIENTAL UNIVERSITETI

INNOVATSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Ilmiy jurnal

(Uchinchi son)

Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2025-yil 24-sentyabrdagi 375/5-son qaroriga muvofiq pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga “Innovatsion pedagogika va psixologiya” ilmiy jurnali kiritilgan.

Toshkent – 2025

“Innovatsion pedagogika va psixologiya”
ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

Bosh muharrir:
Nishanova Z. T. – psixologiya fanlari doktori, professor,
Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a’zosi (akademigi)

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Egamberdiyeva F.O. – pedagogika fanlari nomzodi, professor

Mas’ul muharrir:
Umarov B.M. – psixologiya fanlari doktori, professor

Musahhih:
Norkulova G.

Tahrir hay’ati a’zolari:

Kozlov V.V.	*Psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya);*
Lekerova G.J.	*Psixologiya fanlari doktori, professor (Qozog‘iston);*
Sibel Sönmaz	*Pedagogika fanlari doktori, professor (Turkiya);*
Shafiyeva I.I.	*Psixologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon);*
Palatkina G.V.	*Pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya);*
Xazova S.A.	*Psixologiya fanlari doktori, dotsent (Rossiya);*
Ibragimov X.I.	*Pedagogika fanlari doktori, akademik;*
Mirqosimova M.	*Pedagogika fanlari doktori, akademik;*
Quchqorova N.M.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Niyozmetova R. X.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Muslimov N.A.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Xalilova Sh.T.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Xodjayev B.X.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Kadirova M.R.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Nazarova D.A.	*Pedagogika fanlari nomzodi, professor;*
Shoumarov G‘. B.	*Psixologiya fanlari doktori, akademik;*
Karimova V.M.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Atabaeva N.B.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Abdullaeva D.U.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Baykunusova G.Y.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Qarshieva D.S.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Alimbayeva Sh.T.	*Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent;*
Nishanov S.Y.	*Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Nasirov Kamiljon Jaylauyevich
“E’tirof” metodining mohiyati va pedagogik-psixologik imkoniyatlari 4
Egamberdiyeva Farida Oktamovna
Talabalarning kreativlik salohiyatini rivojlantirishda pedagogik imkoniyatlar 14
Nishanbekova Jadira O‘rinboy qizi
O‘quvchilarning musiqiy qiziqishlarini rivojlantirish 23
Egamberdiyeva Shahzoda Damirovna, Tursunaliyeva Muxlisa Baxtiyor qizi
Enhancing Cultural Competence Through Realia in Foreign Language Education: Didactic Potential 34
Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi
Boshlang‘ich ta’limning ona tili va o‘qish o‘quv dasturi mazmunini takomillashtirish bo‘yicha tahliliy takliflar va mulohazalar 43
Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna
Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijobiy fikrlash orqali ma’naviy-moddiy hayot uyg‘unligini rivojlantirish 50
Qodirova Mashxura Mirzaakbarovna
Audio-lingval metod orqali og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish: O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi talabalari misolida 58
Mamanazarov Uchqun Burxon o‘g‘li
Changes in the characteristics of moral self-awareness in adolescent students 65
Namozova Gulbahor Muzaffarovna
Bolalar adabiyotida folklor unsurlarining ifodasi 76

PSIXOLOGIYA

Muratxodjayeva Feruza Xotamovna
Inson ruhiyatini aks ettirishning milliy o‘ziga xosligi 87
Нишанов Сарвар Юлдибаевич
Психологические особенности лжецов: что отличает систематических обманщиков от случайных 95
Alimbayeva Shahlo Tursunovna
Mental xususiyatlarning til birliklarida namoyon bo‘lishi 104
Avazyazova Dilfuza Shovkatovna
Xorijiy talabalarda oliy ta’limga moslashish muammosi 116
Quyliyeva Orzigul Rajabboyevna
Bolalar va o‘smirlar uchun sxematerapiya: niqobli rol o‘yinlari va ifodali guruh mashqlarini qo‘llash 127

INSON RUHIYATINI AKS ETTIRISHNING MILLIY O ‘ZIGA XOSLIGI
NATIONAL SPECIFICITY OF REFLECTING HUMAN PSYCHE
НАЦИОНАЛЬНАЯ СПЕЦИФИКА ОТРАЖЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ПСИХИКИ

Muratxodjayeva Feruza Xotamovna
Tillar-2 kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,(PhD)
Oriental Universiteti, 52A, Noraztepa.
Tel.:+998881986777
E-mail: fmuratkhodjaeva@gmail.com

Annotatsiya. Inson ruhiyatining o‘ziga xos xususiyatlarini tabiiy tilda aks ettiruvchi leksik material ba’zan o‘zaro to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarama-qarshilikka kirishadigan psixologik va lingvistik deb ataluvchi ikki yondashuvga asoslanib tuziladi. Psixologiyada shaxs xususiyatlarini tuzishda qo‘llaniladigan usullar, ularning ruhiy xususiyatlarni ifodalovchi so‘zlar o‘rtasidagi semantik yaqinlikka asoslanishi, aslida ularning lingvistik leksikologiya, semasiologiya va leksikografiya bilan juda kam aloqaga ega ekanligiga qaramay, ba’zan “leksikografik” deb ataladi. Asosiy farq so‘zning muhim xususiyati sifatida uning qanday semantikasini asos qilib olish kerakligini aniqlashda, ya’ni so‘zlarning lug‘atdagi ta’riflarda aks ettirilgan leksik mazmuninimi yoki ma’lum bir til egalarining ongida paydo bo‘ladigan so‘zlarning bir-biri bilan assotsiativ bog‘lanishlari asosida anglanadigan semantikasinimi, bu borada tilshunoslar birinchi yondashuvga tayanadilar, psixologlar esa ikkinchi turdagi semantikaning muhim rolini ta’kidlashda “psixosemantika” atamasi ostida mavjud bo‘lgan tushunchaga tayanadilar. Psixologlarning fikriga ko‘ra, bu semantika, odamning kundalik ongi va uning paradokslarini tushuntirishda, mantiqiy-lisoniy tuzilmalar va normativ lug‘at ma’nolariga qaraganda yaxshiroq yordam beradi.

Kalit so‘zlar: *krossmadaniy, etnografiya, antropologiya,* ***madaniy relyativizm, absolyutizm, universalizm***

Аннотация. Лексический материал, отражающий особенности психики человека в естественном языке, формируется на основе двух подходов, иногда называемых психологическим и лингвистическим, которые находятся в прямой оппозиции друг к другу. Методы, используемые в психологии для составления характеристик личности, основанные на семантической близости слов, выражающих психологические черты, иногда называют «лексикографическими», несмотря на то, что они фактически имеют весьма слабое отношение к лингвистической лексикологии, семасиологии и лексикографии. Основное различие заключается в определении того, какую семантику следует брать за основу для важного признака слова: лексическое

содержание слов, отраженное в словарных определениях, или семантику, понимаемую на основе ассоциативных связей слов друг с другом, возникающих в сознании носителей данного языка. В связи с этим лингвисты опираются на первый подход, в то время как психологи, подчёркивая важную роль второго типа семантики, опираются на понятие, существующее под термином «психосемантика». По мнению психологов, эта семантика помогает лучше, чем логико-лингвистические конструкции и нормативные словарные значения, объяснить обыденное сознание человека и его парадоксы.

Ключевые слова: *кросс-культурный, этнография, антропология, культурный релятивизм, абсолютизм, универсализм*

Abstracts. The lexical material reflecting the human psyche in a natural language is sometimes built on the basis of two things, called therapeutic and linguistic, which are directly opposed to each other. In psychology, words expressing personal safety are words expressing their own semantic damage. In psychology, methods are laid down in the system of personal life. Taking into account the importance of basic words, what semantics is distinguished, the lexical content reflected in the first-order definitions or the associative associativity of words that may appear in the psycholinguistics of a particular language, which plays an important role in this, that is, the renewal of words. In their evaluation, they rely on the concept that exists under the term “psychosemantics”. According to psychologists, this semantics is a good help in understanding the everyday consciousness of a person and its paradoxes, logical-linguistic structures and normative meanings of words.

Keywords: *cross-cultural, ethnography, anthropology, cultural relativism, absolutism, universalism*

KIRISH

Milliy xarakter etnopsixologiyaning asosiy tushunchasi bo‘lib, psixologik kontekstda xarakter – bu insoniyat ehtiyojlarini ma’lum bir jamiyatda, etnik guruhda yashash tarziga moslashtirish jarayonida paydo bo‘ladigan insonning maxsus faolligi shaklidir. Xarakter etnik tafakkur sohiblarining fikrlari, hissiyotlari va harakatlarini belgilaydi. Etnik guruhning xususiyatlarini o‘rganishda, avvalo, ushbu guruh a’zolarining katta qismiga xos bo‘lgan individual xususiyatlar o‘rganiladi; buni milliy xarakter deb atash mumkin. Tabiiyki, milliy xarakter individual xarakterga qaraganda kamroq o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. “Milliy xarakter” tushunchasiga faqat shu etnik guruhning aksariyat a’zolariga xos bo‘lgan, ularning umumiy muloqotlari, tajribalari, yashash tarzidan kelib chiqadigan xarakter xususiyatlari kiradi. Zero, “Til boyliklarini millat madaniyati, tafakkuriga bog‘lab boshqa fanlar integratsiyasi kesimida o‘rganish natijasida etnoslarga xos bo‘lgan milliy-madaniy me’yor va qoida-

qonuniyatlar ochib berilmoqda”. (Baxronova D. K:. 2023. – 213 b.) Inson ruhiyatini aks ettirishning milliy o‘ziga xosligi va farqlari deganda turli millatlar va madaniyatlar orasidagi dunyoqarash, tafakkur, gapirish va yozish usullari, hatto qo‘llaniladigan leksik birliklarning xilma-xilligi nazarda tutiladi. Masalan, insonning tuyg‘ularini ifodalashda sharq va g‘arb mamlakatlari madaniyatiga nazar solinsa, sharq madaniyatida odamning ichki holati jamiyat bilan uzviy bog‘liqligiga asoslangan garmoniya va jamiyatga muvofiqlik dominantlik qilishi ko‘zga tashlanadi, masalan, yaponlarning “*vabi-sabi*” nomi bilan mashhur bo‘lgan falsafasida oddiylik va tabiat bilan uyg‘unlik tushunchalari muhim ahamiyatga ega.

G‘arbiy madaniyatda shaxsning tuyg‘ularni ifodalashda individning o‘ziga xosligi va mustaqillik yetakchilik qilishi yaqqol namoyon bo‘ladi, binobarin, g‘arbda shaxsning ichki dunyosi ko‘pincha mustaqillik va xususiy o‘zgarishlar bilan bog‘lanadi. AQShda yoki Yevropa mamlakatlarida shaxsning o‘z ehtiyojlari, istiqbollari va his-tuyg‘ulari doimo markaziy o‘rin egallaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Geografik determinizmning eng yorqin vakili fransuz faylasufi Sh.Monteske bo‘lib, u odamlarni iqlim, shuningdek, din, qonunlar, boshqaruv tamoyillari, o‘tmishdagi tajribalar, axloq, odatlar boshqarishini ta’kidladi; bu barcha omillarning umumlashgan ta’siri natijasida xalqning umumiy ruhiyati shakllanadi. Ammo yuqorida sanab o‘tilgan ko‘plab omillar orasida u iqlimni ham ko‘rib chiqqan. Masalan, “*issiq iqlim xalqlari*”, uning fikricha, “*qariyalarga o‘xshab, sust, jasoratga qodir emas, lekin jonli tasavvurlarga ega*”. Shimoliy xalqlar esa “*yoshlar kabi jasur*” va zavqlanishlarga moyil. Shu bilan birga, iqlim xalqning ruhiga nafaqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri, balki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi: iqlim sharoitlariga qarab, an’analar va odatlar shakllanib, ular o‘z navbatida xalqlarning hayotiga ta’sir qiladi. Eng qiziqarli nuqtai nazar ingliz faylasufi D.Yumning “Milliy xarakter haqida” asarida o‘z aksini topgan. D.Yum tabiiy yashash sharoitlarini (havo, iqlim) xalq xarakteri, temperament, mehnat va turmush an’analarini belgilovchi omillar sifatida ko‘radi. Biroq, uning fikriga ko‘ra, milliy xususiyatlarning shakllanishida asosiy o‘rinni ijtimoiy (axloqiy) omillar egallaydi. Ushbu omillarga u jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lgan barcha narsani kiritadi. Ijtimoiy munosabatlarning xalq psixologiyasini va alohida qatlamlarning shakllanishidagi rolini tan olish uni jamiyat qatlamlarining psixologiyasi va ularning milliy xususiyatlar bilan aloqasi masalasiga olib keldi. Germaniyalik faylasuf G.Gegelning asarlari millatlar xarakterini o‘rganish borasidagi bilimlarning rivojlanishiga muhim hissa qo‘shdi. “Ruh falsafasi”da u millatlar va irqlar xarakteri muammolarini o‘rganib chiqadi. Gegelning fikriga ko‘ra, milliy xarakter — bu subyektiv ruhiyatning turli tabiiy sharoitlardagi namoyon bo‘lishidir, bu esa aslida

millatlar va irqlar ruhiy dunyosining xususiyatlarini belgilaydi. Demak, irqiy va milliy farqlar — bu shaxsning umumiy tabiiy ruhiyatining ma'lum sharoitlarda namoyon bo'lishidir. Xalq psixologiyasini o'rganayotgan mualliflar orasida fransuz olimi G.Lebonni ham alohida ta'kidlab o'tish lozim. Irqlarning psixologik tarkibidan xalqning dunyo va hayot haqidagi tushunchalari, ularning xulqi va dunyoni qabul qilish tarzlari kelib chiqadi. Xalqning milliy ruhiyati, tarixiy va ma'naviy jarayonni belgilovchi, shaxslarning hissiyotlari, qiziqishlari va e'tiqodlaridan iborat bo'lib, uni ushbu xalqning tarixiy rivojlanishi elementlari orqali o'rganish lozim: til, g'oyalar, e'tiqodlar, san'at, adabiyot – bularning barchasi xalq ruhiyatining o'ziga xos namoyon bo'lishidir. G.Lebon ta'kidlaganidek, turli xalqlar va irqlarga mansub insonlar ruhiyatining tuzilishida katta farqlar mavjud.Yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqot ishlaridan farqli ravishda mazkur dissertatsiya ishida inson ruhiyatini ifodalovchi emotiv leksik birliklarning semantik va lingvokognitiv xususiyatlari gumanitar fanlarda qabul qilingan tizimli usullarni hisobga olgan holda tahlil qilinadi hamda "inson" (milliy shaxs), "til" (tafakkur) va "madaniyat" (moddiy va ma'naviy) kabi tushunchalarning o'zaro dinamik munosabatlari lingvokognitiv nuqtayi nazardan tadqiq qilinishi bilan ahamiyatlidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada an'anaviy metodlar (lisoniy tavsiflash, tasvirlash, kontekstual tahlil, komponent tahlil metodlari) bilan bir qatorda yangi tahlil usullari, xususan, kommunikativ-pragmatik tahlil, semantik maydon usuli qo'llanildi. Insoniyatning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu til shakllaridan aloqa vositasi sifatida foydalanishdir. Til va tafakkur bir-biri bilan uzviy bog'langan, biri ikkinchisisiz yashay olmaydigan hodisadir, tafakkur tilda yashaydi, har qanday nutq asosida esa tafakkur yotadi, til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, tilning jamiyatdagi o'rni, ichki tuzilishi – tilning tasnifi, uni tahlil qilish usullari va shu kabi masalalar E.Tarasov, M.Talbot, Ye.Balashova, A.Maslov, H.Delgado, G.Giyom, A.Ivanov, Sh.Safarov, A.Mamatov, Sh.Sirojiddinov, X.Dadaboyev, M.Irisqulov, I.Siddiqova, N.Sadullayeva, D.Baxronova kabi olimlarning asarlarida o'rganilgan.

Tilni tilshunoslikdan tashqari falsafa, mantiq kabi boshqa fanlar ham o'rganadi, qadimgi yunon faylasuflari Demokrit, Suqrot, Aflotun ongni tafakkur va ruhning o'ziga xos sintezi sifatida ko'rganlar, zamonaviy yondashuvlarda ong ruh emas, balki insonning kognitiv qobiliyati sifatida o'rganiladi. Dekart tomonidan ong tafakkurning ichki rivojlanishi mahsuli sifatida talqin qilingan bo'lsa, J.Lokk va T.Gobbslar uni tashqi ta'sirlarning natijasi sifatida qabul qilganlar, faylasuflar S.Priyst, V.Slobodchikov va Ye.Isaev, A.Spirkin, S.Rubinshteyn, V.Volnov, Ye.Sheremeta, Merlo-Pontilarning ilmiy ishlarida falsafa va tilning aloqalari masalalari yoritilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, til, borliq (voqelik, olam) va tafakkur o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalash va talqin qilishga qaratilgan falsafiy qarashlar tahlil qilingan, til falsafasining vazifasi uning lisoniy namoyon bo‘lishida borliq va ong o‘rtasidagi munosabatni o‘rnatish ekanligi isbotlangan hamda ushbu munosabatlar diqqat markaziga inson turuvchi Antroposentrik paradigma doirasida o‘rganilgan.Inson ruhiyati fenomenologiyasi insonning bilim va tajribani qanday anglashi va tajriba orqali borliq olam bilan qanday munosabatda bo‘la olishini o‘rganuvchi falsafiy yo‘nalish sifatida tafakkurni tushunish hamda voqelikning inson tajribasi orqali qabul qilinishiga ko‘ra kognitiv psixologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Psixologik tajribalar o‘tkazish qiziqarli natijalar beradi, psixologik sinovdan o‘tayotgan odamga ko‘pincha shaxsiy xususiyatlar, insoniy fazilatlar nomlarini o‘z ichiga olgan, leksik jihatdan aynan ruhiy xususiyatlarni ifoda etish bilan bevosita aloqasi bo‘lmagan so‘zlardan iborat maxsus lug‘atlar taqdim etiladi. Bular *yaxshi - yomon, yoqimli - yoqimsiz, jozibali - jirkanch, muloyim - qo‘pol* va boshqa shu kabi baholovchi xarakterdagi leksik birliklar, odamlarni ularning kasb-hunarlariga yoki shunchaki qandaydir xatti-harakatlariga nisbatan ta’riflaydigan *daho, boshqaruvchi, zo‘ravon, o‘g‘ri, usta* kabi so‘zlar, siyosiy, diniy yoki dunyoqarash bilan bog‘liq qarashlarni aks ettiruvchi *taqvodor, xudojo‘y, ateist, imonli /imonsiz* kabi so‘zlar, bilim, ko‘nikma va malaka darajasini aks ettiruvchi *bilimdon, malakali, tajribali, mahoratli, iqtidorli* va hokazo so‘zlar. Keltirilgan leksemalar inson ruhiyati bilan bog‘liq tadqiqotlar uchun dastlabki material sifatida foydalaniladigan so‘zlar qatoriga kiradi, chunki tadqiqotga jalb qilingan mutaxassislar: “Ushbu so‘zni shaxs ruhiyatini tavsiflashda ishlatish mumkinmi?” degan savolga ijobiy javob beradilar. (Шмелев А.Г.: 2002. – 480 с.) Psixologning nuqtayi nazaridan, bu yetarli, ammo tilshunosning nuqtayi nazaridan esa, odamlarni tavsiflovchi belgilardan qaysilari aynan shaxsning ruhiy xususiyatlariga tegishli ekanligini aniqlashda birmuncha qiyinchilik tug‘iladi, chunki bu erda yana ham ko‘proq aniqlikni talab etuvchi milliy xarakter tushunchasini ham qamrab olish zarur.

Milliy xarakter etnopsixologiyaning asosiy tushunchasi bo‘lib, psixologik kontekstda xarakter – bu insoniyat ehtiyojlarini ma’lum bir jamiyatda, etnik guruhda yashash tarziga moslashtirish jarayonida paydo bo‘ladigan insonning maxsus faolligi shaklidir. Xarakter etnik tafakkur sohiblarining fikrlari, hissiyotlari va harakatlarini belgilaydi. Etnik guruhning xususiyatlarini o‘rganishda, avvalo, ushbu guruh a’zolarining katta qismiga xos bo‘lgan individual xususiyatlar o‘rganiladi; buni milliy xarakter deb atash mumkin. Tabiiyki, milliy xarakter individual xarakterga qaraganda kamroq o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. “Milliy xarakter” tushunchasiga faqat shu

etnik guruhning aksariyat a'zolariga xos bo'lgan, ularning umumiy muloqotlari, tajribalari, yashash tarzidan kelib chiqadigan xarakter xususiyatlari kiradi. Zero, "Til boyliklarini millat madaniyati, tafakkuriga bog'lab boshqa fanlar integratsiyasi kesimida o'rganish natijasida etnoslarga xos bo'lgan milliy-madaniy me'yor va qoida-qonuniyatlar ochib berilmoqda". (Baxronova D. K., 2023. – 213 b.)

Inson ruhiyatini aks ettirishning milliy o'ziga xosligi va farqlari deganda turli millatlar va madaniyatlar orasidagi dunyoqarash, tafakkur, gapirish va yozish usullari, hatto qo'llaniladigan leksik birliklarning xilma-xilligi nazarda tutiladi. Masalan, insonning tuyg'ularini ifodalashda sharq va g'arb mamlakatlari madaniyatiga nazar solinsa, sharq madaniyatida odamning ichki holati jamiyat bilan uzviy bog'liqligiga asoslangan garmoniya va jamiyatga muvofiqlik dominantlik qilishi ko'zga tashlanadi, masalan, yaponlarning "*vabi-sabi*" nomi bilan mashhur bo'lgan falsafasida oddiylik va tabiat bilan uyg'unlik tushunchalari muhim ahamiyatga ega. (https://elleuzbekistan.com/yaponiyaning-wabi-sabi-hayot-tarzi/)

G'arbiy madaniyatda shaxsning tuyg'ularni ifodalashda individning o'ziga xosligi va mustaqillik yetakchilik qilishi yaqqol namoyon bo'ladi, binobarin, g'arbda shaxsning ichki dunyosi ko'pincha mustaqillik va xususiy o'zgarishlar bilan bog'lanadi. AQShda yoki Yevropa mamlakatlarida shaxsning o'z ehtiyojlari, istiqbollari va his-tuyg'ulari doimo markaziy o'rin egallaydi.

Agar g'arbiy madaniyatlarda ruhiy va aqliy holatlarni tushunishda aniq faktlar va tahlilga asoslangan metodlar ko'proq ahamiyatga ega bo'lsa, sharqda esa intuisiya va ichki hissiyotlar ko'proq hisobga olinadi, bunga Yaponiya, Xitoy va Hindiston kabi mamlakatlardagi shaxsning ruhiyatiga oid tushunchalar misol bo'la oladi. G'arb psixologiyasida shaxsni baholash va tushunish uchun aniq ilmiy tadqiqotlar va metodologiyalar ishlatiladi. Sharq xalqlari madaniyatlarida ko'pincha tabiat va inson ruhiyati o'rtasidagi uyg'unlikka urg'u beriladi, hind falsafasida, shuningdek, buddizmda inson va tabiatning yagona ekanligi, ularning bir-biriga ta'sir qilishini yoritish muhim o'rin tutadi. G'arbda esa tabiat va inson ruhiyati o'rtasidagi farqlar ko'proq ta'riflanadi va har bir elementning mustaqil xususiyatlariga e'tibor qaratiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Psixologiyada shaxsning psixologik tuzilishidagi asosiy model shaxs faoliyati yondashuviga asoslanadi va struktura tuzilishi quyidagi o'zaro bog'liq psixologik tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: - o'zini anglash; - shaxsning yo'nalishi; - temperament va xarakter; - **ruhiy (**psixik) jarayonlar va holatlar;- qobiliyatlar va imkoniyatlar;- shaxsning psixik tajribasi**.** Inson ruhiyati uning turli hayotiy vaziyatlardagi tabiatini ifodalaydi; tabiatning beqarorligi subyektning ehtiyojlari, madaniy va shaxsiy xususiyatlari bilan belgilanadi hamda doimiy ravishda atrofdagilar tomonidan baholanib boradi. Inson ruhiyatini aks ettirishning milliy o'ziga xosligi va

farqlari deganda turli millatlar va madaniyatlar orasidagi dunyoqarash, tafakkur va yozish usullari, hatto qo‘llaniladigan leksik birliklarning xilma-xilligi nazarda tutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдурахманов Р.А. Введение в общую психологию. – Москва-Воронеж. – С. 345.
2. Baxronova D. K. (2023) Olamning lisoniy manzarasi: til, tafakkur va madaniyat. – UK: GlobeEdit. – 213 b.
3. Friedenberg J., Silverman G. (2006) Cognitive science: An introduction to the study of mind. – Thousand Oaks, CA: Sage. – 544 p.
4. Frodeman R., Klein J.T., Mitcham C. (2010) The Oxford handbook of interdisciplinary. – Oxford: Oxford University Press. – 620 p.
5. Gardner H. (1985) The mind’s new science: A history of the cognitive revolution. – New York: Basic Books. – 448 p.
6. Garman M. (1990) Psycholinguistics. – Cambridge, New York: CUP. – 548 p.
7. Garnham A. (1994) Thinking and Reasoning. – Blackwell Pub. – 389 p.
8. Залевская А.А. (1990) Слово в лексиконе человека: психолингвистическое исследование. – Воронеж: Изд-во Воронежского ун-та. – 205 с.
9. Зуфарова М.Э. (2010) Umumiy psixologiya. – Toshkent. – 306 b.
10. Леонтьев А.А. (1990) Основы психолингвистики. – Москва: Смысл. – 288 с.
11. Sirliyev B.N., Beknazarov A.A., Arziqulov D.N. (2005) Psixologiya. – Toshkent. – 138 b.
12. Слободчиков В.И., Исаев Е.И. (1995) Основы психологической антропологии. Человеческая психология: Введение в психологию субъективности. – Россия: Школа-Пресс. – 384 с.
13.Солсо Р. (2014) Когнитивная психология. – СПб. – Серия № 4. – С. 342.
14. Шмелев А.Г. (2002) Психодиагностика личностных черт. – СПб.: Речь. – 480 с.

REFERENCES:

1. Abduraxmanov R.A. Vvedeniye v obshuyu psixologiyu. – Moskva-Voronej. – S. 345. (In Russian)
2. Baxronova D. K. (2023) Olamning lisoniy manzarasi: til, tafakkur va madaniyat. – UK: GlobeEdit. – 213 b. (In Uzbek)
3. Friedenberg J., Silverman G. (2006) Cognitive science: An introduction to the study of mind. – Thousand Oaks, CA: Sage. – 544 p.
4. Frodeman R., Klein J.T., Mitcham C. (2010) The Oxford handbook of interdisciplinary. – Oxford: Oxford University Press. – 620 p.
5. Gardner H. (1985) The mind’s new science: A history of the cognitive revolution. – New York: Basic Books. – 448 p.
6. Garman M. (1990) Psycholinguistics. – Cambridge, New York: CUP. – 548 p.

7. Garnham A. (1994) Thinking and Reasoning. – Blackwell Pub. – 389 p.
8. Zalevskaya A.A. (1990) Slovo v leksikone cheloveka: p issledovaniye. – Voronej: Izd-vo Voronejskogo un-ta. – 205 s. (In Russian)
9. Zufarova M.E. (2010) Umumiy psixologiya. – Toshkent. – 306 b. (In Uzbek)
10. Leontev A.A. (1990) Osnovi psixolingvistiki. – Moskva: Smisl. – 288 s. (In Russian)
11. Sirliyev B.N., Beknazarov A.A., Arziqulov D.N. (2005) Psixologiya. – Toshkent. – 138 b. (In Uzbek)
12. Slobodchikov V.I., I Ye.I. (1995) Osnovi psixologicheskoy antropologii. Chelovecheskaya psixologiya: Vvedeniye v psixologiyu subyektivnosti. – Rossiya: Shkola-Press. – 384 s. (In Russian)
13.Solso R. (2014) Kognitivnaya psixologiya. – SPb. – Seriya № 4. – S. 342. (In Russian)
14. Shmelev A.G. (2002) Psixodiagnostika lichnostnix chert. – SPb.: Rech. – 480 s. (In Russian)